




# ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATINING  
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI  
2024-YIL YANVAR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 74 228-30-42  
[www.andstat.uz](http://www.andstat.uz)


## Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 2 857,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 207,7 % ni tashkil etdi.

**Yanvar**  
**mlrd. so'm**



**Yanvar**  
**FHI, % da**



Andijon sh.	479,5	113,0
Xonobod sh.	96,3	106,0
Oltinko'l	106,7	132,2
Andijon	64,3	100,4
Baliqchi	90,9	112,4
Bo'ston	53,7	107,7
Buloqboshi	25,8	100,3
Jalaquduq	82,9	112,4
Izboskan	31,4	107,2
Ulug'nor	32,1	105,6
Qo'rg'ontepa	131,3	104,4
Asaka	1 139,4	227,2
Marhamat	52,7	104,2
Shahrixon	122,0	88,6
Paxtaobod	48,8	114,2
Xo'jaobod	99,9	98,5


*mlrd. so'm*

*FHI, % da*


## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka tumanida 3 813,1 ming so'm, Xonobod shahrida 2 120,4 ming so'm, Andijon shahrida 1 010,6 ming so'm hamda Xo'jaobod tumanida 842,5 ming so'mni tashkil etmoqda.

Yanvar  
ming so'm



Yanvar  
o'sish sur'ati, % da



Andijon sh.	1 010,6	110,4
Xonobod sh.	2 120,4	103,9
Oltinko'l	560,1	129,7
Andijon	227,1	98,2
Baliqchi	425,8	110,1
Bo'ston	696,8	105,5
Buloqbo'shi	170,5	98,3
Jalaquduq	420,9	110,3
Izboskan	124,2	105,2
Ulug'nor	506,1	103,9
Qo'rg'ontepa	575,1	102,5
Asaka	3 813,1	222,3
Marhamat	285,6	102,1
Shahrixon	380,3	86,6
Paxtaobod	236,6	111,7
Xo'jaobod	842,5	96,0


ming. so'm

o'sish sur'ati. % da

## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **2 782,5** mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **97,4 %** ni tashkil etdi.

Hajmi, mlrd. so'm




2024-yilning yanvar oyida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Asaka tumani (46,9%), Andijon shahri (16,8%), Qo'rg'ontepa tumani (4,6%), Shahrixon tumani (4,3%) hamda Oltinko'l tumani (3,7%) hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Asaka tumanida (227,2%), Oltinko'l tumanida (132,2 %) hamda Paxtaobod tumanlarida (114,2 %) kuzatildi.

FHI, % da



Ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **34,0** mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,2 %** ini tashkil etdi.



### Yanvar

2023- y. 17,5 mlrd. soʻm

2024- y. 34,0 mlrd. soʻm

### FHI, % da

2023- y. 87,6%

2024- y. 86,2%

## C seksiya

### Ishlab chiqaradigan sanoat

2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **2 782,5** mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining **97,4 %** ini tashkil etdi.

### Yanvar

2023- y. 1 158,6 mlrd. soʻm

2024- y. 2 782,5 mlrd. soʻm

### FHI, % da

2023- y. 122,2 %

2024- y. 211,7 %






**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**  
*O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

Yengil avtomobillar		Yumshoq bug'doy va spelta uni		Paxta tolasi	
2024		2024	41,7	2024	141,0
2023	0	2023	88,3	2023	131,2
2022	3,8 m.	2022	90,8	2022	126,7
Paxtadan yigirilgan ip		Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar		Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim	
2024	2,3 m.	2024	45,1	2024	
2023	55,9	2023	124,5	2023	0
2022	124,2	2022	99,1	2022	80,0
Neft		80% dan kam bo'lmagan etil spirti		Paxta chigiti	
2024	117,9	2024	2,2 m.	2024	142,3
2023	111,3	2023	100,3	2023	29,4
2022	2,1 m.	2022	38,1	2022	0,1

2024-yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 7,7 ming dona yengil avtomobil (2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 7,7 m.ga oshgan), 3,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (58,3 % kamaygan), tonna paxtadan ip mahsulotlari (2,3 m.ga oshgan) ishlab chiqarilgan.





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar	2023-yil yanvar	Farqi, +/-
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilmagan) - dona	7 665,0	0,0	7 665,0
Paxtadan yigirilgan ip - tonna	4 170,6	2957	1 213,6
Yumshoq bug‘doy va spelta uni - tonna	3 142,6	7 537,9	-4 395,3
Temir yoki po‘lat simdan matolar, panjaralar, to‘rlar va to‘siqlar - tonna	7,4	16,4	-9

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida avtotransport vositalari, treyler, yarim tirkamalar ishlab chiqarish sohasining ulushi – 53,6 % (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 292,4 %), kiyim ishlab chiqarishining ulushi – 9,9 % (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 96,0 %), paxtani qayta ishlash va ip gazlama sanoatining ulushi – 17,1 % (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 122,0%), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 7,8 % (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 107,8 %)ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2023- yilning yanvar oyida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 58,7 % (2023- yilning yanvar oyida – 14,7 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 2,6 % (2023- yilning yanvar oyida – 5,2 %) va quyi texnologiyalisi – 38,6 % (2023- yilning yanvar oyida – 80,0 %)ni tashkil etdi.






## Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati 1,2 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,04 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 21,4 % ni tashkil etgan.


2023-yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,4 % ni va oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,7 % ni tashkil etgan.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar oyi yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 60,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 16,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 20,0 % ni tashkil etgan.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar oyi yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,4 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 7,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 221,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 79,8 % ni tashkil etgan.




## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2024- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 31,6 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 13,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar oyida mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 1,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 93,7 % ni tashkil etgan.




## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2024- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 22,0 % ga oshgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 488,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 77,1 % ni tashkil etgan.




## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish




2024- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 66,3 %, fizik hajm indeksi 11,9 % ga oshdi hamda ishlab chiqarish hajmi 2 780,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,0 % ni fizik hajm indeksi esa 7,4 % ni tashkil etgan.




### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2024- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 268,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 837,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni fizik hajm indeksi esa 88,0 % ni tashkil etgan.


### Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2024- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 216,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 34,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni fizik hajm indeksi esa 108,8 % ni tashkil etgan.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish



2024- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 164,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 19,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni fizik hajm indeksi esa 111,0 % ni tashkil etgan.

## Elektr, gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash,

## D seksiya

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2024- yil yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.


2024- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 mlrd. so‘mga ortganligi kuzatildi.



**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2023- yil Yanvar	2024- yil Yanvar	Farqi, +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	14,1	24,4	-10,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	0,0	0,2	-0,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.




Sanoat mahsulotlari	2023- yil Yanvar	2024- yil Yanvar	Farqi, +/-
Tabiiy suv: Suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – mlrd. so'm,	14,8	5,8	9,0
Oqava suvlarning shlami – mlrd. so'm	3,1	1,2	1,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 14,8 mlrd. so'm yoki 2,5 m. ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek, oqava suvlarning shlami bo'yicha xizmatlarda 3,1 mlrd. so'm hajm bajarilgan.

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2024- yilning yanvar oyida

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 745,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,1 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida viloyatdagi Buloqboshi, Izboskan tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi 100 % kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Andijon tumanida 83,2 %, Shahrixon tumanida 79,5 %, Baliqchi tumanida 62,4 %, Paxtaobod tumanida 62,4 % ni tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar, Qoʻrgʻontepa tumani 23,6 %, Xonobod shahri 14,1 %, Asaka tumani 3,3 % ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.





## Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Andijon viloyatida 10 975 ta sanoat korxonalari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan 5 510 tasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 485 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 27,0 %) Andijon shahriga, 623 tasi (11,3 %) Andijon tumaniga, 500 tasi (9,1 %) Asaka tumaniga, 405 tasi (7,4%) Shahrixon tumaniga, 375 tasi (7,4 %) Xo'jaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.



*Yangi tashkil etilgan*

*Faoliyat ko'rsatayotgan*

2023- yil

47 dona

Yangi tashkil etilgan korxonalar

2024- yil

67 dona



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar

2023- yil

9 887 dona

2024- yil

5 511 dona